



UDK:911.(375.3)

Bekzod MUSAYEV,
Samaqand Davlat universiteti tayanch doktoranti
E-mail: musayev1985@mail.ru.

O'zMU professori, g.f.d. Z.N. Tojiyeva taqrizi asosida

THEORETICAL ASPECTS OF THE LOCATION AND DEVELOPMENT OF CITIES

Annotation

The theoretical aspects of the location and development of cities, the formation of the first urban settlements, the theories of foreign scientists regarding the location and development of cities, the formation of cities under the influence of various factors are presented in the article. Geographical factors play an important role in the emergence and development of the network and structure of cities, the construction of architectural and engineering structures in urban areas. It is also stated that the process of urbanization creates huge social, economic and environmental problems. Therefore, in this article, an attempt was made to clarify the problems of location and development of urban settlements.

Key words: Urban settlement, big city, urbanization, city, agglomeration, ancient city, linear city, smart city, monocentric city, dynametropolis.

ТЕОРЕТИЧЕСКИЕ АСПЕКТЫ РАЗМЕЩЕНИЯ И РАЗВИТИЯ ГОРОДОВ

Аннотация

В статье представлены теоретические аспекты размещения и развития городов, образования первых городских поселений, теории зарубежных ученых относительно размещения и развития городов, формирования городов под влиянием различных факторов. Географические факторы играют важную роль в возникновении и развитии сети и структуры городов, строительстве архитектурных и инженерных сооружений на городских территориях. Также констатируется, что процесс урбанизации создает огромные социальные, экономические и экологические проблемы. Поэтому в данной статье предпринята попытка прояснить проблемы размещения и развития городских поселений.

Ключевые слова: Городское поселение, крупный город, урбанизация, город, агломерация, древний город, линейный город, умный город, моноцентрический город, динаметрополис.

SHAHARLAR JOYLANISHI VA RIVOJLANISHINING NAZARIY JIHATLARI

Annotatsiya

Maqolada shaharlar joylanishi va rivojlanishining nazariy jihatlarini, ilk shahar aholi manzilgohlarining shakllanishi, xorijiy olimlarning shaharlar joylashishi va rivojlanishi borasidagi nazariyalari, shaharlarning turli omillar ta'sirida shakllanishi, ilmiy asoslab berilgan. Geografik omillar shaharlar to'ri va tarkibining paydo bo'lishi, rivojlanishi, shaharlar hududida arxitektura – muhandislik inshootlari qurilishi muhim o'rin egallaydi. Shuningdek, urbanizatsiya jarayonlarining ulkan ijtimoiy, iqtisodiy va ekologik muammolarning vujudga kelishi bayon qilingan. Binobarin, ushbu maqolada shahar aholi manzilgohlari joylanishi va rivojlanishi muammolarini yoritib berishga harakat qilingan.

Kalit so'zlar: Shahar aholi manzilgohi, katta shahar, urbanizatsiya, shahar, aglomeratsiya, qadimgi shahar, chiziqli shahar, aqli shahar, monotsentrik shahar, dinametropolis.

Kirish. Zamonaviy ilm-fanning ta'kidlashicha, insoniyat tarixidagi birinchi shaharlar taxminan 5 ming yil oldin paydo bo'lgan. Dunyo tarixdagi eng katta shaharlar o'sish to'liqligini boshdan kechirmoqda. Hozirda dunyo aholisining yarmidan ko'pi shahar va shaharchalarda istiqomat qiladi va 2030-yilga borib bu raqam 5 mlrd kishiga yetishi mumkin. Bu urbanizatsiyaning katta qismi Afrika va Osiyoda sodir bo'lib, ulkan ijtimoiy, iqtisodiy va ekologik muammolarning vujudga kelishiga olib keladi. Dunyo miqyosida shaharlarda yashayotgan kishilarning har uch kishidan biri haroba uylarda yashaydi. Insoniyat tarixining ko'p qismida aholi zichligi juda past bo'lgan qishloq joylarida yashagan. Urbanizatsiya so'nggi bir necha asrlarga xos bo'lgan jarayondir.

Mavzuga oid adabiyotlarning tahlili. Shaharlar rivojlanishi va joylanishini tadqiq etishning ilmiy asoslari bo'yicha xorijiy olimlardan I.Tyunen, A.Soria, A.Veber, E.Govard, P.Geddes, Le.Korbyuze, Ye.Burges, V.Kristaller, X.Xoyt, S.Kulin, F.Perru A.Lyosh, J.Gottman, K.Doksiadis K.Linch, R.Merfi., F.Gibbert, U.Alonso va boshqalar tomonidan o'rganilgan. Ular tadqiqotlarida shaharlar rivojlanishi va joylanishining ilmiy nazariyalarini hamda ularning nazariy-metodologik asoslarini tahlil qilgan.

Sobiq Ittifoq va MDH mamlakatlarida shaharlar muammolari bo'yicha juda keng ko'lamdagi tadqiqotlar olib borilgan. Bu borada, eng avvalo, N.N.Baranskiy, N.Ladovskiy, I.Leonidov, O.A.Konstantinov, Yu.G.Saushkin, D.I.Bogorad, A.P.Buryan, V.G.Davidovich, V.Sh.Djaoshvili, I.M.Mayergoyz, N.I.Naymark, G.M.Lappo, Ye.Ye.Leyzerovich, F.M.Listengurt, Ye.N.Persik, B.S.Xorev, A.Ye.Gutnov kabi olimlarning ilmiy-nazariy qarashlari va g'oyalarini keltirish o'rinli.

O'zbekistonda shaharlarni rivojlanishi va joylanishini geografik o'rganish masalalari bo'yicha E.A.Axmedov, O.B.Ata-Mirzayev, T.I.Raimov, A.S.Soliyev, A.A.Qayumov, Z.H.Rayimjonov, N.M.Mamatqulov, S.Zokirov va boshqa mutaxassislar shug'ullanishgan. Alohida hududlar bo'yicha urbanizatsiya muammolari Z.T.Abdalova, M.M.Egamberdiyeva, A.Mavlonov, S.K.Tashtayeva, P.Qurbonov va boshqalarning tadqiqotlarida o'z aksini topgan.

Tadqiqot metodologiyasi. Shaharning aniq bir to'xtamga kelgan ta'rifi mavjud emas. «Shahar» tushunchasini ko'plab adabiyotlarda turlicha ta'riflanadi, jumladan, forschada shahar so'zi «qal'a» degan ma'noni bildirsa, rus tilida esa «gorod»-ogorodit, atrofini o'ramoq ya'ni o'rab olmoq ma'nolarini bildiradi. Shahar aholi manzilgohlari – qadimdan tarkib topgan aholi manzilgohlaridir. Bunga biz yurtimizdagi Samarqand, Buxoro, Xiva kabi qadimiy shaharlarni misol keltirishimiz mumkin.

«Shaharlar ko'p va xilma-xildir. Shaharlarning xilma-xilligi cheksizdir. Ular tarixning haqiqiy guvohlari va ko'plab voqealar ishtirokchilaridir» [8]. Shahar aholi manzilgohlari sifatida shakllana boshladi. Shaharlar vaqt o'tishi bilan rivojlanish jarayonida, jamiyatning talablariga mos ravishda, o'z ko'rinishini o'zgartirib borgan. Shaharlarning ijtimoiy va funksional vazifalari bilan bir qatorda geografik muhit va iqlim ham shahar shakllanishi va joylanishining muhim omiliga aylangan.

Ilk shahar aholi manzilgohlari insonlarning kasb hunar faoliyatining uyg'unlashgan maskani sifatida shakllana boshlagan. Bu davrda, jamiyatda mehnat taqsimoti vujudga kelishi natijasida shakllandi. Shahar aholi manzilgohlari harbiy turargohlar (qal'a va shaharlar) hamda savdo manzilgohlari sifatida shakllana boshladi. Shaharlar vaqt o'tishi bilan rivojlanish jarayonida, jamiyatning talablariga mos ravishda, o'z ko'rinishini o'zgartirib borgan. Shaharlarning ijtimoiy va funksional vazifalari bilan bir qatorda geografik muhit va iqlim ham shahar shakllanishi va joylanishining muhim omiliga aylangan.

Shahar aholi manzilgohlari joylanishi va rivojlanishi muammolari haqida dastlabki yozma va arxeologik ma'lumotlar shahar madaniyatining qadimgi markazi hisoblanadigan qadimgi Mesopotamiyaga tegishli bo'lib, eramizdan oldingi V asrdayoq tarixchi Gerodot qadimgi davrning eng yirik shaharlaridan biri Vavilon to'g'risida ma'lumot bergan.

«Shahar aholi manzilgohlari ijtimoiy mehnat taqsimotining mahsuli sifatida vujudga kelgan asosiy tipi va hozirgi zamonda aholining eng keng tarqalgan va joylashgan shaklidir» [9]. Shahar aholisining tabiiy va mexanik o'sishi, qishloq aholi manzilgohlarining ham tabiiy va mexanik o'sishi shaharga aylanishi, shahar aholi manzilgohlarining o'sishiga va hududining kengayishiga ta'sir etadi.

Shaharlarda aholi sonining juda tez ko'payib borayotganligi, so'nggi yillarda dunyodagi eng muhim ijtimoiy-iqtisodiy muammolardan biri hisoblanadi. «Bizning asrimizda shaharlar jadal rivojlanmoqda, ularning soni ko'payib bormoqda. Birgalikda o'sib borayotgan shaharlar yirik aglomeratsiyalarni hosil qiladi. Ammo shaharlarning taqdiri naqadar rang-barang, bir-biriga o'xshamaydi!» [8]. Zamonaviy shaharlarning o'sishi jamiyatning iqtisodiy rivojlanishi ehtiyojlari bilan bog'liq.

XIX asrda fan-texnika taraqqiyotining rivojlanishi sababli, aholining qishloq aholi manzilgohlaridan shahar aholi manzilgohlariga ko'plab miqdorda ko'chib borishi, yirik shahar aholi manzilgohlari sonining ko'payishi, shahar aholi salmog'ining ortib borishi va qishloq aholi manzilgohlariga ham shaharcha turmush tarzining keng yoyilishi bilan bog'liq bo'lgan urbanizatsiya jarayonlari tez sur'atlar bilan rivojlanib bormoqda. «So'nggi yillarda urbanizatsiya jarayoni sifat jihatdan o'zgarib o'zining yuksak cho'qqisiga erishdi; yirik shaharlar o'z doirasidan chiqib, yangi hududiy tizimlar shahar aglomeratsiyalari va megapolislar ko'rinishida namoyon bo'la boshladi. Bu jarayon ayniqsa aglomeratsiyalar shakllanishida o'z aksini topdi» [10].

Istiqbolda shahar aholi manzilgohlarining to'g'ri rivojlanishi va joylanishi uchun o'tmishda va hozirgi kundagi eng mukammal ishlab chiqilgan shaharsozlik nazariyalarini ko'rib chiqish zarurdir.

Shaharlarning markaziy o'rin nazariyasi-nemis geograflari V.Kristaller (1933) va A.Lyosh asarlarida o'z aksini topgan. Nazariya shahar hududini saqlab qolish uchun katta miqdordagi unumdor qishloq xo'jaligi yerlari kerakligini ta'kidlaydi. Shaharning shahar atrofi bilan aloqalari kuchayib, unda shahar savdo zonasini yaratadi. Shuningdek, qishloq hududlarida ish o'rinlari ko'payadi. Yana bir rus shaharshunosi N.Milyutin shahar rivojlanishining funksional-oqimli nazariyasini taklif qildi. Bu nazariyada sanoat qismi turar-joylarga va boshqa funksional qismlarga to'g'ri joylashadi. Bu nazariya hozirgi kunda ba'zi yangi zamonaviy shaharlar bosh rejalariga asos qilib olindi.

Grek shaharsozi K.Doksiadisning 1953 yilda yaratgan shahar konsepsiyasi juda ham mashhur bo'lib, unda kelajakdagi shaharning nazariy asoslarini ta'riflab berdi. Doksiadis tomonidan ilgari surilgan, ko'rinishidan yangi shaharlarni yagona megapolisga birlashib ketishi, tezlikda o'zining yangidan paydo bo'lib kelayotgan ekologik muammolar oldida o'z o'zini ta'kidlaydi. Doksiadis kelajakdagi shaharlarning muammosini tadqiq qilib, shaharlarning yirik shahar aglomeratsiyalariga aylanishi nazariyasini oldinga surdi. Doksiadis o'zining kelajak shahri nazariy asoslarida vaqt omilini asosiy omil, deb bilib, vaqt o'tgan sayin shahar hududining kengayishi natijasida va aholisining ko'payishi sababli shahar kattalashib uning vazifalari ko'payib, markazida ko'plab muammolar bo'y ko'rsata boshlashini ta'kidlaydi.

Kelajak shahar nazariyasi Doksiadis bo'yicha shahar o'z rivojlanishida to'rtta bosqichda rivojlanishi va joylanishini ta'kidlaydi. Bular, birinchisi «dinapolis» (bir yo'nalishda, bir xil funksiyalarni bajaruvchi hamda rivojlanuvchi monosentrik shahar), ikkinchisi «dinametropolis» (bir nechta «dinapolis» larning parallel rivojlanishi) bunda bir qancha shaharlarning birgalikda rivojlanishini anglatadi, uchinchi «dinamegapolis» (gigant-shaharlarning rivojlanishi) bu bosqichda yirik aglomeratsiyalarning qo'shilib ketishi natijasida, yirik megapolislarining paydo bo'lishini tushinish mumkin. Shahar tuzilmasining oxirgi bosqichi – «oykumenopolis» bo'lib, bu yer sharidagi barcha shaharlarning butun bir tizimda birlashgan ko'rinishidir. Pokiston poytaxti Islomobod shahri va Sudan poytaxti Hartum shaharlarida Doksiadis o'z nazariyasini bosh reja asosida amalga oshirdi, shuningdek, uning g'oyasi, u tomonidan loyihalashda o'z aksini topdi.

Dunyoda juda xilma-xil kelajak shaharlari konsepsiyalari mavjud bo'lib, ularga dengizdagi shaharlar, ko'pri-shaharlar, aqlli shahar, piramida shaharlar va suzuvchi shaharlar va boshqalar kiradi. O'z vaqtida, bu nazariyalar to'g'risida A.Y.Gutunov «shaharlar bir necha yuz yil evolyutsiyaga ega bo'lgan. Shaharlarni odamlarning muloqot hududi sifatida saqlab qolish lozim. Bugungi shaharni kelajak shahriga o'tmishini yo'qotmasdan, hozir ko'rinishi bilan uyg'unlashtirib rivojlantirish qiyin. Arxitektorning shahar aholisi bilan muloqati natijasida paydo bo'ladigan shahar - bu haqiqiy demokratik shahardir», deb ta'riflab o'tgan [4]. Shaharlar butun bir davlatlarning ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyotini o'zida jamlagan. Shuningdek, ko'plab shaharlar ayniqsa, mega shaharlarning iqtisodiy ko'rsatkichlari butun bir davlatlarnikidan ham yuqori turadi. Biroq bu mega shaharlarda muammolar ham juda ko'pdir.

Ingliz shaharshunosi F.Gibbert yirik shaharlarga shunday ta'rif beradi «Yirik shaharlar ijtimoiy uzoqlashtirishni keltirib chiqaradi. U insonni tabiatdan uzoqlashtiradi. Shaharlarda aholi zichligining juda yuqoriligi moddiy va madaniy foyda keltirmaydi» [3]. Darhaqiqat, hozirgi kunda dunyo aholisining 50 foizdan ortig'i aholi zich joylashgan shaharlarda istiqomat qilishi tufayli, issiqlik bilan bog'liq o'limlar, og'ir iqtisodiy oqibat, infratuzilmaga yetkaziladigan zarar shaharlarda ancha yuqori,

shaharlarga issiq ob - havo aynan qanday ta'sir qiladi - bu savolga javob beradigan bo'lsak, shaharlar odatda issiqlik markazlari, deb ataladi, chunki ularda harorat shahar atrofdagi hududlarga qaraganda yuqoriroq bo'ladi.

Shahar aholi manzilgohlarini to'g'ri joylashtirish, rivojlantirish, rejalashtirish va boshqarishga oid qonun, qoidalar bundan 2,5-3 ming yillar avval Gippokrat, Platon, Aristotel asarlarida ham uchraydi. O'rta asrlarda ham yo'l, bozor, hammomlarni qurish, shaharni qo'riqlash kabi o'sha davrga xos turli qonun qoidalar bo'lgan.

Shahar aholi manzilgohlarining rivojlanishi, ularning hududi va aholisining ko'payishi natijasida ko'plab muammolar ya'ni shaharsozlik muammolarining murakkablashishi ko'rinda boshlaydi. «Shaharni rejalashtirish faqatgina arxitekturaliy rejalashtirish emas, balki, hududiy, iqtisodiy, sotsial, ekologik, tarkibiy – urbanistik jihatlarini rejalashtirish va shu jihatdan barqaror shaharni rejalashtirib keyin arxitekturaliy rejalashtirishga o'tish maqsadga muvofiq» [11].

Shahar aholi manzilgohlarining shakllanishi va rivojlanishiga ta'sir etadigan eng asosiy shahar hosil qiluvchi omil bu shaharlarning iqtisodiy geografik o'rnidir. «Shaharlarning iqtisodiy geografik o'rnini qanday degan savolga javob uning xom ashyo va yoqilg'i manbalari, eng muhim avtomobil yo'llari, aholi manzilgohlari uchun mo'ljallangan hududlarga nisbatan qanday joylanish xususiyatlariga asoslanadi» [8]. Shaharlarning yon atrofida o'mashgan geografik obyektlar (tog'lar, qir, daryo, yo'l, kon, boshqa aholi manzilgohi, qishloq xo'jalik dalalari, davlat chegaralari, sug'orish inshootlari va hokazolar) ularning rivojlanishiga ijobiy yoki salbiy ta'sir etadi. Yuqoridagilardan ko'rinib turibdiki, shaharlarning rivojlanishi va IGO' o'rtasida o'zaro aloqadorlik mavjud. Ayni paytda ta'kidlash joizki, har bir shaharning mezo va makro geografik o'rnini o'ziga xos bo'lib, boshqalarga mos kelmaydi. Shu bilan birga har bir shahar doimo o'zining iqtisodiy geografik o'rnini yaxshilashga intiladi.

Shaharlarni rivojlantirishda ko'plab olimlar o'zlarining rivojlantirish modellari kiritgan. Shahar konsentrik zonalari modeli (Burgess modeli) shahardagi ijtimoiy guruhlarining tuzilishini tushuntiruvchi model sotsiolog Yernest Burges tomonidan 1925-yilda «Shahar o'sishi: tadqiqot loyihasiga kirish» kitobi nashr etilishi bilan yaratilgan. Inson ekologiyasiga asoslanib, Burgess ijtimoiy guruhlarining shaharlarda taqsimlanishini tushuntirib berdi. Tarqatish - bu shahardan foydalanishni tasvirlaydigan konsentrik halqalar



1-rasm. «Burgess modeli bo'yicha shahar joylashtirilishi» [2].

«Burges nazariyasining A-zonasida - markaziy biznes okrugi; B - zonada - ofislar va yengil sanoat korxonalari joylashgan o'tish zonasi; S - zonada - mehnatkashlar sinfi, ish joyiga yaqin joyda joylashgan ishchilar sinfining yashash joyi; D - zonada - bir oila uchun turar-joylar, uylar maydoni; Ye - zona - shahar markazidan yarim soatlik masofada joylashgan shahar atrofidagi hududlarni kiritgan» [2]. Burgess modeli tadqiqot obyekti bo'lgan Mirzacho'l iqtisodiy rayoni Jizzax va Guliston shaharlarining joylashtirilishiga solishtirsak bu shaharlarda A, B, S zonalari aralashib ketgan va D, Ye zonalari esa to'g'ri kelishini ko'rishimiz mumkin.

Uilyam Alonso tomonidan 1964-yilda Tyunen modeli asosida ishlab chiqilgan, shahar yer bozoriga moslashtirilgan, qishloqqa o'xshash bo'lgan fazoviy shahar modeli, bu yerda shahar ishchilar joylashadigan va uning atrofida yer uchun raqobat mavjud bo'lgan markaziy biznes tumani sifatida qaraladi. Turli xil xizmatlardan foydalanish uchun: ofislar, do'konlar va uy-joyar joylashadi.

Piter Genri Mann shahar o'sish modeli, unga ko'ra shaharda bir nechta markazlar mavjud bo'lib, ularning har biri muayyan faoliyat turiga ixtisoslashgan va shahar atrofidagi hududlarda sezilarli iz qoldiradi. Shahar markazining ko'p yadroli tizimini shakllantirish markazda faoliyatning ayrim turlarini saqlab qolgan holda, chekka hududlarda tadbirkorlik faoliyatini rivojlantirish jarayonida sodir bo'ladi.

1940-yillarning o'rtalariga kelib, yirik shaharlar mavjud rivojlanish modellari mos kelmasligi aniq bo'ldi. Ularda katta hududdagi shahar atrofi zonalari (shahar atrofi) rivojlangan bo'lib, ularning ba'zilar ma'lum hajmga yetib, rivojlanishning o'zagi - kichik biznes tumanlari sifatida ishlay boshladi.

A.Lyosh 100 yil davomida yaratilgan ishlab chiqarish va aholi punktlarining joylashuvi haqidagi barcha ma'lum nazariyalarni umimlashtirib, I.Tyunen, A.Veber, V.Kristaller va boshqalarning alohida nazariyalarini bog'ladi. U mikrodarajadan iqtisodiy rayonlarni shakllantirish muammolariga o'tib, joylashtirish nazariyasi mavzusini ham kengaytirdi.

Fransuz iqtisodchisi Fransua Perru «o'sish qutblari» va «rivojlanish markazlari» nazariyasida «Mintaqaviy o'sish qutbi - urbanizatsiyalashgan hududda joylashgan va butun ta'sir zonasida iqtisodiy faoliyatning yanada rivojlanishini ta'minlashga qodir rivojlanayotgan va kengayib borayotgan sanoat tarmoqlari majmui, deb ta'rif beradi» [7]. Fransua Perruning «o'sish qutblari» va «rivojlanish markazlari» nazariyasiga O'zbekistonda tashkil etilgan Navoiy, Angren, Jizzax maxsus industrial zonalarining tashkil etilishini misol qilib keltirish mumkin.

Xulosa va takliflar. Xullas shahar aholi manzilgohlarining termik haritalarini yaratish va ularning asosida qurilish ishlarini to'g'ri olib borish, shaharlardagi issiqlikning oqibatlarini yumshatish kerak. Shaharsozlik meyorlarini o'zgartirib, va jamoat transporti tizimini yaxshilab, shahar rejasini o'zgartirish va uni yashash uchun foydali va qulay qilish kerak.

ADABIYOTLAR

1. Ардалянова А.Ю., Бизюков П. В., Браславский П. Г., Малые города в социальном пространстве России: монография - М.: ФНИСЦРАН, 2019.
2. Бёрджесс Э. Рост города: Введение в исследовательский проект // Социальные и гуманитарные науки за рубежом. — 2000. — Т. 11, № 4.
3. Гибберт Ф. Городское планирование. -М: 1959 г. с-270.

4. Гутунов А.Э. Эволюция градостроительства.-М.:Стройиздат,1984.-256 с.
5. Доманьский Р. Экономическая география: динамический аспект. – М.: Новый хронограф, 2010. – 376 с.
6. Зокиров С.С. Ўзбекистонда урбанизация жараёнларини тартибга солиш тизимини такомиллаштириш: иқтисод фанлари доктори (DSc) илмий даражасини олиш учун ёзилган диссертация – 2020.- 287-б.
7. Крейденко Т.Ф. Теории и концепции развития городов. Развитие городов в эпоху глобализации. Глобальные города
8. Лаппо Г.М. Рассказы о городах. Изд-во "Мысль" –М.: 1972. - 192 с.
9. Soliyev A.S., Tashtayeva S.K., Egamberdieva M.M.. Shaharlar geografiyasi. O'quv qo'llanma,- T.: 2019,184-b.
10. Таштаева С.К. Ўзбекистон шаҳар агломерацияларининг шаклланиши ва ривожланиш хусусиятлари. (Тошкент агломерацияси мисолида) География фанлари номзоди илмий даражасини олиш учун ёзилган диссертация автореферати.-Т.,2011.-161-б.
11. Таштаева С.К. Геоурбанистика фанининг шаклланиши ва ривожланиш тарихи. Ўзбекистонда геоурбанистиканинг замонавий муаммолари. Илмий амалий семинар материаллари. Т., 2021.-18-март. -246-б.